


2. Narsalar nomida S tovushi ishtirok etgan rasmni bo'yang.
3. Chiziq bo'ylab harakatlanib, harflar o'rmini o'zgartiring va so'z tuzing.



Darsga yakun yasash:

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?
- Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?
- Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o'zingiz mustaqil bajara oldingiz?

37-mavzu: [z] tovushi. Zz harfi

Dars maqsadi:

- [z] tovushining talaffuzi va Zz harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [z] undosh tovush ekanligini bilib onladilar.
- so'zlardan [z] tovushining o'rmini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo`g'inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;
- [z] tovushi ishtirok etgan so'z va gaplarni o'qishni o'rganadilar.

Tayanch so'zlar: [z] tovushi

Didaktik materiallar: ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlli kartochkalar,

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Meni top mashqi: O'qituvchi doskaga a.a, n.n, t.t so'zlaridagi harflarni tushub qolgan tarzda yozadi. O'quvchilardan shu so'zlarda tushurib qoldirilgan harflarni topishni so'raydi.

- Bugun siz bilan "Meni top" mashqini o'tkazamiz. Doskada yozilgan so'zlarda yashitinib tushib qolgan harflarni topib qo'ysangiz so'z hosil bo'ladi.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

Juftlikda ishlash:

O'qituvchi topishmoq o'qiydi:

Asal yig'ishdir ishi,

Ko'pdir uning yumushi. (asalari)

O'quvchilarga shu topishmoqni javobini topib uni qanday tovush chiqarishini aytishni so'raydi.

- *Topishmoqni javobini toping. U qanday tovush chiqarishini ayting.*

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Topishmoqni javobi qanday?*
- *Bu hasharot qanday tovush chiqaradi?*
- *Siz uni qayerlarda eshitgan bo'lishingiz mumkin?*

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

2.Mavzuni tushuntirish: (10 daqiqa)

O'qituvchi [z] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

Z tovushini talaffuzida lablar kulgu holatida, tishlar ko'rinishi turadi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birikmagan, tilning keng uchi pastki kurak tishlarining orqasida turadi, tilning oldingi kurak qismi yuqorigi tishlar bilan tirkish hosil qiladi, til kuragining yon qirralari yon tishlarga zinch tiralgan bo'lib, faqat tilning o'rta qismida ingichka tirkich qoladi, tilning o'rtasidan sovuq havo oqimi o'tadi, buni his etish uchun qo'l kaftining orqa qisdaqiqai og'iz oldiga olib borish kerak, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devoriga tiralgan bo'lib, burun yo'llarini yopadi va buning natijasida havo oqimi og'izdan o'tadi, tovush bog'lamlari bog'langan, u tebranib tovush hosil qiladi.

Darslik

37-dars [z] tovushi Z z harfi

[z] tovushi – undosh tovush
Talaffuzida tishlar bir-biriga
yaqinlashadi. Havo sing'alib
tovushni hosil qiladi.

Zinada turgan o'rtoq,
Senga bordir bir so'roq:
"N"ni qanday ushlasang.
"Z"ga oxshaydi ozroq?

z	a	o	i	u	ö	e
za	za	zo	zi	zu	zo'	ze
Za	zar	oz	za-min	Za-mi-ra		
Zo	zot	soz	za-mon	Zo-kir		
Zi	zid	yoz	zly-nat	Zi-yo-da		
Zu	zum	so'z	zuk-ko	Zum-rad		
Zo'	zo'r	ko'z	zly-rak	Zi-lo-la		

[z] tovushi bor sozlarini toping.



Oz so'z-la – soz so'z-la.
Ay-tar so'z-ni ayt,
Ayt-mas so'z-dan qayt.

Darslikdan Zz harfini bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

Zinada turgan o'rtoq,
Senga bordir bir so'roq:
"N"ni qanday ushlasang,
"Z"ga oxshaydi ozroq?

- *She'r nima haqida?*
- *Z harfi nimaga o'xshatilgan ?*
- *N harfini qanday qilib Z harfiga aylantirish mumkin*
- *Sanoq cho'plaringiz bilan Z harfini yasab ko'ring.*

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'inlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

"Z" tovushi bor so'zni toping.

Maqollarni o'qib uning mazmuni tushuntiriladi.

Oz so'z-la – soz so'z-la.


Ay-tar so'z-ni ayt,

Ayt-mas so'z-dan qayt.

Daftар bilan ishslash: (10 daqiqa)

1. *Zz harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganiningizni ayting.*

2. *Zebra so'zining chizmasidan r harfining o'rmini aniqlang va tegishli kataknini bo'yang.*



3. *Berilgan namunadan bosma Zz harfining bosh va kichik ko'rinishini va so'zlarni avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqili yozing.*

4. *Rasmni ifodalovchi so'zlarni jadvaldan topib shu kataklarni bo'yang.*

Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

-Qaysi topshiriqni bajarishga qiyonaldingiz?

38-mavzu: [z] tovushi. Zz harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [z] tovushining talaffuzi va Zz harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;

- so'zlardan [z] tovushining o'rmini aniqlashni o'rganadilar;

- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: O'zbekiston tabiatи, [z] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: rasmlи va bo'g'inli kartochkalar, kesma harflar, O'zbekiston tabiatи aks ettirilgan rasmlar, "Zumrad va Qimmat" ertagi.